
Ingliz tilidagi ilmiy terminlarni idrok etishning psixologik jihatlar

Ruzmetova Dildora Adilbekovna

druzmetova1974@gmail.com

Dotsent,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Annotatsiya *Ushbu maqolada o'quv jarayonida bilishni shakllantirish va yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishning psixologik hamda lingvistik asoslari tahlil qilinadi. Matnda idrok, diqqat, appertsepsiya kabi kognitiv jarayonlarning chet tilidagi leksik birliklarni o'zlashtirishga ko'rsatadigan ta'siri yoritiladi. Bilimni egallashning bosqichlari – idrok etish, tushunish, yodda saqlash va faol qo'llash – turli tadqiqotchilar yondashuvlari asosida izohlanadi. Shuningdek, leksik birliklarni o'rganishda transpozitsiya, semantizatsiya va vizualizatsiya kabi usullarni qo'llashning samaradorligi ko'rsatiladi. Tadqiqotda reproduktiv darajadagi o'zlashtirish muhim o'rin tutib, talabalarning yangi so'z va iboralarni notanish vaziyatlarda qo'llay olishi aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida baholanadi. Maqola chet tilini o'qitishda psixologik mexanizmlarni hisobga olish va talabalarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish uchun samarali didaktik yondashuvlarni aniqlashga qaratilgan.*

Kalit so'zlar *Usul, texnik, o'ziga xos, ko'p tilli terminologiya, ikki tilli terminologiya, potentsial lug'at, yondashuvlar*

Психологические аспекты восприятия научных терминов в английском языке

Рузметова Дилдора Адилбековна

druzmetova1974@gmail.com

Доцент,

*Узбекский государственный университет
мировых языков*

Аннотация *В статье рассматриваются психологические и лингвистические основы процесса усвоения знаний и формирования лексической компетенции при изучении иностранного языка. Анализируются ключевые когнитивные механизмы – восприятие, внимание и апперцепция, – определяющие способность обучающихся понимать и интериоризировать новые лексические единицы. На основе различных научных подходов описываются этапы усвоения материала: восприятие, понимание, запоминание и дальнейшее применение. Особое внимание уделяется эффективности таких методов, как транспозиция, семантизация и визуализация при работе над словарным запасом. Подчеркивается значимость воспроизводящего уровня усвоения, при котором студенты способны использовать новые слова и выражения в незнакомых ситуациях, что служит показателем их интеллектуального и речевого развития. Цель статьи – определить наиболее результативные дидактические методы, учитывающие психолингвистические механизмы обучения и направленные на развитие профессиональной и академической лексической подготовки студентов.*

Ключевые слова *Метод, техническая, специфическая, многоязычная терминология, двуязычная терминология, потенциальная лексика, подходы*

Psychological aspects of perception of scientific terms in English

Ruzmetova Dildora Adilbekovna

druzmetova1974@gmail.com

Associate Professor,

Uzbek State World Languages University

Annotation *This article examines the psychological and linguistic foundations of knowledge acquisition and lexical development within the foreign-language learning process. It explores key cognitive mechanisms such as perception, attention, and apperception, highlighting their influence on learners' ability to comprehend and internalize new lexical items. Various scholars' classifications of learning stages – including perception, understanding, memorization, and active application – are discussed and compared. The study emphasizes the importance of transposition, semantic clarification, and visualization strategies in facilitating effective vocabulary learning. Special attention is given to the reproductive level of mastery, where learners demonstrate their ability to apply newly acquired vocabulary in unfamiliar communicative contexts. Such ability is interpreted as an indicator of cognitive development and deeper linguistic competence. The article aims to identify effective didactic approaches that consider psychological processes in foreign-language acquisition and support the enhancement of students' professional and academic lexical skills.*

Keywords *Method, technical, specific, multilingual terminology, bilingual terminology, potential vocabulary, approaches*

O'quv jarayoni bir necha bosqichlardan tashkil topgan. Ulardan biri obyektni idrok etish bo'lib, bu obyektni boshqalaridan ajratib olish va uning muhim xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liq. Idrok etish bosqichi tushunish bosqichi bilan almashadi, bunda o'rganuvchining tashqi va ichki idrok etish munosabatlari ishga tushadi. Bilim hosil qilishning keyingi bosqichi tanlangan xususiyat va munosabatlarni takroran idrok etish va mahkamlash natijasida eslab qolish jarayonini o'z ichiga oladi. Keyin mazkur bosqich o'rnini talaba tomonidan idrok etilgan va tushunilgan muhim xususiyat va munosabatlarni takroran faollashtirish bosqichi egallaydi.

Zimnyaya (2003) ta'kidlashicha, o'quv faoliyati yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan

bir xil bo'lmay, mazkur faoliyat o'rganishning asosiy mazmuni bo'lib, uning tuzilishi va rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Talabaning o'quv faoliyati murakkab va tizimli bilimlarni o'zlashtirishga va ularni turli vaziyatlarda qo'llashga oid usullari ishlab chiqishga qaratilgan.

Bundan farqli o'laroq, Jeromi Bruner yangi til yoki tildagi yangi so'zlarni "o'zlashtirish"ni bir vaqtning o'zida sodir bo'ladigan uch jarayon bilan bog'laydi: yangi ma'lumotni qabul qilish, uni qayta tahlil qilish hamda muayyan muammoni hal qilishda undan foydalanish (Bruner, 1977).

Zimnyaya (2003) bilim hosil qilish bo'yicha uchta yondashuvni taklif qiladi. Birinchidan, bilim va ko'nikma hosil qilish inson


hayoti davomida o'zlashtirib boradigan tajribalar majmuasini, shakllantiriladigan axloqiy me'yorlar, umumlashtirilgan harakat usullari va ijtimoiy-tarixiy tajribani egallash orqali shaxsning individual tajribasini boyitish mexanizmini aks ettiradi. Ikkinchidan, Zimnyaya (2003) bilim hosil qilishni materialni qabul qilish, mazmunan qayta ishlash, saqlash va qayta foydalanishga yordam beradigan barcha kognitiv (aqliy) jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab intellektual faoliyat sifatida talqin qiladi. Uchinchidan, u bilim hosil qilishni o'rganish faoliyati natijasi sifatida izohlaydi.

"O'zlashtirish" tushunchasi psixologiya lug'atida tor ma'noda "shaxsning ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashining asosiy yo'li" sifatida talqin qilinadi. Psixofiziologiya

muammolarini o'rganishda yirik ruhshunos Zhinkin (1982)ning alohida xizmatlari bor. Olimning fikricha, nutqni idrok etib tushunish va idrok etishga tayyorlikni nazorat qilish uchun analizdan sintezga o'tish jarayonini o'rganish zarur (Zhinkin, 1982).

Yuqorida keltirilgan manbalarga ko'ra matnni o'qib tushunishning quyidagi bosqichlarini ajratishimiz mumkin (1.3-rasmga qarang):

1. diqqatni markazlashtirish – focusing attention;
2. idrok etish – perception;
3. tanib olish (xarf, so'z, so'z birikmasi va jumalarni yaxlit holda) – recognition;
4. tushunish (matndagi axborotni mazmun sifatida) – comprehension.



1-rasm. O'qib tushunishning psixofiziologik bosqichlari

Antisipatsiya (oldindan fahmlash) o'qish uchun muhim hisoblanadi (gap mazmunini emas balki strukturani oldindan fahmlash to'g'risida so'z yuritiladi). O'qishda amal qiladigan tahminiy fahmlash mexanizmi ham katta o'rin tutadi. Chunki xotirada yaxshi saqlanmagan yoki ilk marta uchragan lug'atning ma'nosini fahmlashga to'g'ri keladi. Bu xususiyatni muallim tegishli mashqlarda shakllantiradi. O'quvchining faol aqliy harakati (kognitiv yondashuvni) taxminan fahmlash uchun zaruriy shartlardan hisoblanadi (Bogoyavlenskiy & Menchinskaya, 1959; 256).

Leksikani nutqda idrok etish xususiyatlari borasida fikr yuritishdan oldin umuman idrok etish va nutqda idrok etish deganda nima tushunilishi leksikaga berilgan ta'riflarga oydinlik kiritib olish lozim. Diqqat – ongning muayyan ob'ektga yo'naltirilganligini bildiradigan psixik faoliyat shaklidir. Idrok – aniq maqsadni ko'zlovchi anglash jarayoni.

Narsa va hodisalar tashqi belgilarining inson ongida aks etish jarayoni idrok deyiladi. Shaxsning to'plagan tajribasi bilan idrok bevosita bog'liq bo'ladi, bu hodisani ruhshunoslar tilida appertsepsiya deyiladi. Ushbu hodisa tufayli chet til o'rganishda til tajribasiga alohida e'tibor beriladi (Bogoyavlenskiy & Menchinskaya, 1959; 27).

Matn mazmunini tushunish – tafakkur jarayoni, yangi mazmunni o'zlashtirish va uni mavjud g'oya hamda tasavvurlar tizimiga qo'shish singari ilmiy bilishning asosiy funksiyalaridan biri sanaladi. Bilish–ob'ektiv borliqning inson ongida aks etish shakli, ilmiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni. Bilish quyidagi turlarda o'rganilgan: Hissiy bilish – sezgilar, idrok, tasavvur orqali. Ratsional bilish – tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi. Talabalarda leksikani o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan ijobiy ta'sir ya'ni transpozitsiya jarayoni til

tajribasida mavjud imkoniyatdan asosiy nutq faoliyati turlarida unumli foydalana bilishida sodir bo'ladi (Bogoyavlenskiy & Menchinskaya, 1959; 145).

Kengroq ma'noda esa muayyan bir ma'lumotni o'zlashtirish deganda shaxs tomonidan avvaldan shakllangan, ijtimoiy rivojlangan xulq-atvor, bilim, ko'nikma va malakalarni "qayta yaratish" jarayoni; ularning subyektiv faoliyat shakllariga aylanish faoliyatidir. Muayyan bilimni o'zlashtirish jarayoni bir necha bosqich yoki darajalardan tashkil topadi. Bu darajalarni tavsiflash bo'yicha bir necha yondashuvlar taklif etilgan:

- o'zlashtirish quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi: materialni idrok etish, tushinish, yodlash va o'zlashtirish (Bagramova, 1994; 261);
- mazkur tadqiqot ishida bilimlarni o'zlashtirish jarayonining birinchi komponenti hisoblangan yangi materialni idrok etish bosqichi haqida so'z boradi;
- qidirish va qayta ishlash; tushuntira olish va mashg'ulot yordamida mustahkamlash;
- yangi ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash, boshqarish, idrok etish, qayta ishlash, ta'riflash;
- yangi bilimlar va ob'ektlar faoliyatni o'rganish; qayta ishlash, bilim va faoliyatni egallash;
- o'quvchilarning ijobiy munosabati, tanishtirish, qayta ishlash, yodlash va saqlash; yangi o'quv materialining muhim jihati va xususiyatlarini aniqlashtirish, uni o'zlashtirish (Bagramova, 1994; 261).

Shunday qilib, bilim birlamchi tushunish va takroran qayta ishlash jarayonidan o'tadi, keyingi bosqichlarda u tushuniladi, tanish va yangi vaziyatlarda qo'llanadi va uning afzalligi o'quvchi tomonidan baholanadi. Ma'lumki, agar bilim birinchi bosqichda qolib ketsa, u rivojlanmaydi. Agar talaba uni notanish vaziyatlarda qo'llasa va unga baho bersa, bu aqliy rivojlanish yo'lida qo'yilgan muhim qadamdir. Bilim turli darajada o'zlashtirilishi

mumkin: 1) reproduktiv daraja, ya'ni ko'rsatma yoki namunalarga muvofiq model bo'yicha qayta ishlash; 2) reproduktiv daraja, yangi bilimlarni izlash va topish, faoliyatning nostandart ko'rinishi. Tahlilda bilimlarni o'zlashtirish darajasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi, sababi ushbu darajalar fikrlash sifatiga, fikrlashning muayyan qolipga solinganligiga yoki asliyligi va o'ziga xosligiga ta'sir ko'rsatadi. Bilimlarni o'zlashtirishning yuqoridagi darajalari pedagogik amaliyotda va ta'lim sifatini baholashda keng qo'llaniladi. Mazkur tadqiqot ishidan ko'zlangan asosiy maqsad ma'lumotni (materialni) o'zlashtirishning reproduktiv darajalariga erishishning eng samarali usullarini topish bo'lganligi sababli (bo'lajak iqtisodchi talabalarning ilmiy va kasbiy so'z boyligini oshirish), o'quv jarayonining dastlabki bosqichlarini hisobga olish, ya'ni yangi ma'lumotni avvalgilaridan farqlay olish va yodlash darajalari va shunga mos ravishda ma'lumotni esda saqlash va idrok etishning psixologik xususiyatlaridan iborat. Chet tildagi yangi so'z va iboralar ustida ishlashning asosiy bosqichlariga quyidagilar kiradi: yangi material bilan tanishish (shu jumladan semantizatsiya), birlamchi mustahkamlash, og'zaki va yozma muloqotning turli shakllarida lug'atdan foydalanish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish. Endi, muhokamani chet tildagi yangi so'zlar ustida ishlashning birinchi bosqichini, ya'ni talabalarga yangi so'zlarni taqdim (tanishtirish) etish bilan davom ettiramiz. Ushbu bosqichda yangi so'zlar ustida ishlash uchun quyidagilarga e'tibor berish lozim:

1. talabalarga yangi so'zning ma'nosi tanishtiriladi, shuningdek, o'rganuvchilar so'zning shakli va qo'llanilishi bilan tanishadi;
2. talabalarning muayyan leksik birlikni to'g'ri tushunishini va uning shaklini idrok etishini nazorat qilish;
3. boshlang'ich faollashtirish bosqichi, uning maqsadi talabalarga materialni eslarida saqlab qolishiga imkon berish.

Talabalarga chet tilda kasbiy yo'naltirilgan so'zlarning taqdim etishning turli usullari borligini hisobga olish zarur, qaysi usulni tanlash muayyan vaziyatga qarab belgilanadi. Yangi leksik birliklar ma'nolarini aniqlash usullari N.I. Gez, O.E. Kagan va G.A. Kitaygorodskayalar tomonidan yozilgan asarlarda berilgan bo'lib ular quyidagicha amalga oshiriladi.

So'z ma'nosini aniqlash usullari:

1. vizualizatsiya usuli (so'z ma'nosini ko'rsatmali tarzda tushuntirish (predmetlarni ko'rsatish, rasm va shu kabilardan foydalanish);
2. chet tildagi leksik birliklar ma'nosini ochib berish.

Shunday qilib, lisoniy belgining mustahkam qaror topmagan davri bo'ladi, bunda tushuncha mazmuni hali shakllanmagan, uning tashqi olam bilan munosabati aloqasi beqaror bo'ladi. Bunda qo'shimcha qiyinchilik, bir tomondan, hayotiy tushunchalarning, boshqa tomondan, asosiy qismi mavhum xarakterga ega ilmiy tushunchalarning mavjudligi va shakllanishi bilan bog'liq. Ilmiy tushunchalar hayotiy, ma'lum vaziyat bilan bog'langan, g'ayriixtiyoriy va ko'p hollarda, noverbal tushunchalardan farqli o'laroq inson aql-idroki yordamida anglashiladi va ma'lum bilimlar tizimiga taalluqlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bagramova, N. V. (1994). Leksicheskie navyki i umeniya pri obuchenii inoiazыchnoi rechi [Lexical skills and abilities in teaching foreign-language speech]. In *Optimizatsiya protsessa obucheniya inostrannym yazykam v srednei shkole i vuze*. 81–86. Ekaterinburg.
2. Bogoyavlenskiy, D. N., & Menchinskaya, N. A. (1959). *Psikhologiya usvoeniya znaniy v shkole* [Psychology of knowledge acquisition in school]. Moscow.
3. Bruner, J. (1977). *Psikhologiya poznaniya. Za predelami neposredstvennoi informatsii* [On knowing: Beyond the immediate information]. Progress.
4. Zhinkin, N. I. (1982). *Rech' kak provodnik informatsii* [Speech as a conduit of information]. Nauka.
5. Zimnyaya, I. A. (2003). Klyuchevye kompetentsii – novaya paradigma rezul'tata obrazovaniya [Key competencies: A new paradigm of educational outcomes]. *Vysshee obrazovanie segodnya*, (5), 34–42.
6. Maksudova, G. O., et al. (2022). Research of modern technologies of education. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2483–2485.
7. Ruzmetova, D. A., & Muratova, N. V. (2020). About comparative analysis of economic terms in English and Uzbek languages. *Theoretical & Applied Science*, (5), 777–779.